

“AUTO CAD” DASTURIDA YOY SHAKLINI YARATISH USULLARI.

Toshkent davlat texnika universiteti
“Sanoat dizayni” kafedrasи vvb.dotsenti
Ma’rufov F.O.
(ORCID 0009-0005-7361-9802)

Annotatsiya: Ushbu tezisda sanoat dizayni yo‘nalishidagi talabalar uchun “Auto Cad” dasturidan foydalanib, yoy chizmasini yaratish texnologiyasi haqida va uni chizishda qo‘llaniladigan usullarning ba’zilari misollar bilan keltirilgan.

Kalit so‘zlar: “Auto Cad”, yoy, chizma, sanoat dizayni, yoy yaratish texnologiyalari.

Maqola Tezisi Maqolada tezisida “Auto Cad” dasturi yordamida yoy shaklini chizish texnologiyasi va uning sanoat dizayni yo‘nalishidagi talabalar uchun ahamiyatli ekanligi yoritilgan. Yoy, aylana chizmasining bir qismi bo‘lib, u turli geometrik ko‘rsatgichlar yordamida yaratilishi mumkin. Maqolada tezisida yoy chizmasini “Auto Cad” dasturi yordamida yaratishning asosiy usullari keltirilgan, jumladan:

- uch nuqta yordamida;
- yoyning birinchi nuqta, markaziy nuqta va oxirgi nuqtalari yordamida;
- yoyning birinchi, oxirgi nuqtalari va ichki burchagi yordamida yoy chizmasini hosil qilish (1-rasm).



a)

b)



c)

1-rasm. Yoym chizmasini hosil qilish usullari: a – uch nuqta yordamida yoy hosil qilish; b – yoyning birinchi nuqta, markaziy nuqta va oxirgi nuqtalari yordamida yoy hosil qilish; c – yoyning birinchi, oxirgi nuqtalari va ichki burchagi yordamida yoy hosil.

“Auto Cad” dasturida turli uskunalarlar yordamida yuqorida aytilgan usullarni qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Masalan, uch nuqta yordamida yoy yaratish usuli geometrik jihatdan to‘g‘ri chiziqlar yordamida yoy shaklini yaratishga imkon beradi. Bunda foydalanuvchi dastur yordamida uch nuqtani belgilab, yoyni osongina yaratishi mumkin.

Birinchi nuqta, markaziy nuqta va oxirgi nuqtalari yordamida yoy shaklini chizish esa muvofiqlikni va aniqlikni ta’minlaydi.

Maqolada, shuningdek, yoyning birinchi, oxirgi nuqtalari va ichki burchagi yordamida kabi ko‘rsatgichlar yordamida ham yaratish mumkinligi keltirilgan. Bu usullar orqali chizmalarning aniqligi va samaradorligi oshadi, hamda chizish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi. Barcha usullar dasturning taalluqli uskunalarini yordamida amalga oshiriladi va dizaynerlarning ijodiy ishlarini ancha yengillashtiradi.

Ushbu tezisda “Auto Cad” dasturidan samarali foydalanishning ahamiyatini va bu texnologiyaning sanoat dizayni yo‘nalishidagi talabalarning ijodiy ishlarida qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Bu bilimlar, bo‘lajak dizaynerlar uchun chizmalarni yaratish jarayonini yanada samarali qilishda katta yordam beradi.

Xulosa.

“Auto Cad” dasturi yordamida yoy yaratish usullarining texnologiyasidan faoydalanishni bilish, sanot dizayn yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning ijodiy ishlarini bajarishda, hamda kelgusida dizayner sifatida faoliyat ko‘rsatishida katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar.

1. Aminov A.Sh. “Muhandislik kompyuter grafikasi (3D modellashtirish)”. O‘quv qo‘llanma. “Kamolot” nashriyoti Buxoro-2022.
2. To‘layev B.R., Yelin Ye.A., Daminov O.O., Xakimov J.O. “Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari”. Kompyuterda AutoCADda chizmalarini ishlab chiqish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2011
3. Raxmanov J.M. Kompyuterda loyihalash. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.:ToshDTU, 2021. 65 b.
4. Ma’rufov F.O. ““Auto Cad” dasturida chizmalarini yaratishda ko‘p foydalaniladigan sodda geometrik shakllar” uslubiy ko‘rsatma. ToshDTU, 2024.
5. Sindarova S. AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANIB TALABALARING IJODIY IZLANISHLARINI RIVOJLANTIRISH // Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 38-41.
6. Ma’rufov F.O. “AUTO CAD” DASTURI YORDAMIDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK VA KO‘PBURCHAKLARNI YARATISH //FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 199-204.
7. Xotamovna G. N. Auto Cad grafik dasturlari dars samaradorligini oshirish vositasi sifatida //Conferencea. – 2022. – С. 143-148.
8. Safarov M. D., Irgashev D. B. MUHANDISLIK CHIZMALARINI CHIZISHDA AUTOCAD GRAFIK TIZIMI FOYDALANISH //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 68-79.
9. Нурматов Э. О‘quvchilarda qurilish chizmalarini chizish qobiliyatini shakllantirish (Auto CAD grafik dasturi vositasida) //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 36-41.
10. Samatova M. N. TALABALARNI KOMPYUTER GRAFIKASIDAN FOYDALANIB GRAFIK ISHLARNI BAJARISHGA OID TAVSIYALAR VA USLUBIY KO ‘RSATMALAR //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 13. – С. 39-43.
11. <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/1266>.
12. <https://help.autodesk.com/view/ACD/2023/RUS/?guid=GUID-30ECFD30-A1D6-4D60-9DD1-B487603F6772>.